

The Main Character's Character And Dramatic Conflict In The Film "Orol Bobo"

Abdullayeva Mag'zuna Usmon qizi

SamDU 1st year master's student

abdullayevamagzuna3@gmail.com

Annotation

This article analyzes the artistic interpretation of the main character's character in the film "Orol Bobo", based on Erkin A'zam's work "Lonely Boat", and the issues of dramatic conflict reflected in the work. The work artistically illuminates the inner experiences of a person, his life views, and the conflicts that arise with society through the image of Orol Bobo. The author effectively uses mental imagery, dialogue, and the development of events to reveal the character of the hero. The article scientifically analyzes the content of internal and external conflicts in the work and their role in creating the character of the hero.

Keywords: film, image, dramatic conflict, the relationship between man and nature, spiritual values, internal conflict.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Erkin A'zamning "Tanho qayiq" asari asosida suratga olingan "Orol bobo" kinoqissasida bosh qahramon xarakterining badiiy talqini hamda asarda aks etgan drammatik konflikt masalalari tahlil qilinadi. Asarda Orol bobo obrazi orqali insonning ichki kechinmalari, hayotiy qarashlari va jamiyat bilan yuzaga keladigan ziddiyatlar badiiy jihatdan yoritilgan. Muallif qahramon xarakterini ochishda ruhiy tasvir, dialog va voqealar rivojidan samarali foydalanadi. Maqolada asardagi ichki va tashqi konfliktlarning mazmuni hamda ularning qahramon xarakterini yaratishdagi o'рни ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kinoqissa, obraz, drammatik konflikt, inson va tabiat munosabati, ma'naviy qadriyatlar, ichki konflikt.

O'zbek adabiyotida inson ruhiyati, jamiyatdagi ma'naviy muammolar hamda tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni badiiy talqin etish muhim mavzulardan biridir. Zamonaviy o'zbek nasrining yetuk vakillaridan biri bo'lgan Erkin A'zam ijodida mazkur masalalar markaziy o'rin egallaydi. Yozuvchining "Orol bobo" kinoqissasi ana shunday asarlardan bo'lib, unda bosh qahramon obrazi orqali insoniylik, vijdon, tabiatga mehr hamda ma'naviy qadriyatlar masalasi badiiy ifoda etilgan. Asarda bosh qahramon xarakterining shakllanishi va rivoji drammatik konflikt orqali ochib beriladi. Kinoqissaning markazida turgan Orol bobo obrazi yozuvchi tomonidan chuqur psixologik va ramziy ma'noga ega obraz sifatida tasvirlangan. Qahramon tabiatni sevuvchi, vijdonli, halol va o'z e'tiqodiga sodiq inson sifatida gavdalanadi. Uning butun hayoti Orol dengizi bilan

chambarchas bog'liq bo'lib, dengiz taqdiri qahramonning ruhiy holatida muhim o'rin tutadi. Orol boboning dengizga bo'lgan muhabbati oddiy hissiy munosabat emas, balki tabiat va inson o'rtasidagi uzviy aloqaning badiiy ifodasidir. Shu jihatdan qahramon obrazi orqali yozuvchi ekologik muammo va insoniy mas'uliyat masalasini ham ilgari suradi. Yozuvchi asarda global muammolardan biri bo'lgan Orol fojeasini qahramonlar nigohida tasvirlab beradi. Bu asarda o'tagan, Qalimbet, Amet, Genjamurod, Tilovbergan, Jumaboy, Gulxadicha kabi bir qancha obrazlar qatnashsa ham bularning barchasi Orol bobo atrofida yaxlit syujet sifatida bit nuqtaga yig'iladi. Orol bobo - bu shunday obrazki, Erkin A'zam bu obrazni Orolning yaxlit o'zi sifatida tasvirlaydi. U shu Orolida tug'iladi. Orolni shunchalik sevganidan ismini ham yodidan chiqaradi:

“ Ha-a, esingni tanib, ko'rgan-bilganing - Orol bo'ldi. Ko'm-ko'k mavjlararo otang qayiqda eshkak eshib borayotir, sen uning qo'ynida... Shundan oting “Orolbola” bo'lib ketdi. Keyin-keyin - Orolboy, endilikda – Orol bobo. O'zingning oting-chi, o'zingning chin oting nima edi? E, kimning esida bor deysiz! “ Orol” bo'lsa kerakda”. Orol bobo ota - bobolaridan meros qolgan hunar qayiqsozlik bilan shug'ullanadi va shogirdlariga ham o'rgatadi. Orol dengizida suv qurib hamma qishloqdoshlari boshqa joylarga ko'chib ketgan bo'lsa ham u o'zi tug'ilib o'sgan diyordan ketishni xohlamaydi, ayolining mozorini, ota-bobolarining xokini, qolaversa, Orolini tashlab keta olmaydi. U uchun tug'ilib o'sgan zamin muqaddas sanaladi. Orol qurigan bo'lsa ham har kun tunda Alloh uning qaramog'iga baliq tushiradi. Rizqini Xudo g'oyibdan berib turishiga hech kim ishonmaydi. Atrofdagilar uni aqldan ozgan chol deb o'ylashadi. O'g'li Qalimbet uni shaharga olib ketmoqchi bo'ladi. Orol bobo rozi bo'lmaydi. Singlisini ishga solib, uni Juqorig'i Kengesga deputat bo'lmoqchiligini ro'kach qilib shaharga ketishga majburlaydi. Hattoki boboni ukol qilib shaharga olib ketadilar. Asarda milliy qadriyatlarimiz shunchalik namoyon bo'lganki, Orol bobo bir hafta shaharda turib zo'rg'a qochib kelganda bir haftalik qolib ketgan namozlarini o'qishi kerakligini shogirdlariga aytadi. Qahramon xarakterining ruhiyati qat'iyligi, umid bilan yashashi chuqur psixologik xarakterga ega inson sifatida ko'rsatiladi.

Kinoqissadagi dramatik konflikt aynan ana shu qarashlar va zamonaviy hayot talablari o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida yuzaga keladi. Bir tomondan, Orol bobo o'z e'tiqodi va qadriyatlariga sodiq qolgan holda yashaydi. Ikkinchi tomondan esa jamiyatdagi ayrim kishilar moddiy manfaatni ustun qo'yib, tabiat va ma'naviy qadriyatlarga befarq qaraydi. Hoji

maxsumga o'xshagan shaxslar orqali milliy qadriyatlarga befarq, faqat pul topishni o'ylaydigan, o'g'lining hunarini mensimaydigan inson, boylkning ketidan quvadigan kimsalarni yoritib beradi. U o'g'lini chet elga salat kesishga yubormoqchi bo'ladi. Orol bobo Ametning shunday hunari turib salat kesishga ketishidan norozi bo'lib:“o'zlari kesib yesa bo'lmasmikan shu salatni”- deydi. Asarda qahramonning ichki dunyosi bilan tashqi muhit o'rtasida keskin dramatik ziddiyat yuzaga keladi.

Mazkur konflikt faqat tashqi voqealar rivoji orqali emas, balki qahramonning ichki kechinmalari orqali ham ochib beriladi. Orol boboning dengiz qurib borayotganini kuzatishi, shu bilan birga uning qayta tiklanishiga umid bilan qarashi qahramon ruhiyatidagi murakkab psixologik jarayonlarni ifodalaydi. Orol boboning dengiz yana qaytishiga bo'lgan ishonchi hech qachon so'nmaydi. Hattoki shogirdlari uni xursand bo'lishi uchun dengizni shishalar bilan to'ldiradi. Shishalar oftobda yaraqlab xuddi suvga o'xshab ko'rinadi. Orol boboning yagona armoni Orol o'z o'zaniga qaytganini ko'rish bo'ladi. Shu kunlarni ko'rib bu dunyoni tark etgisi keladi. Boboning orzusi armon bo'lmadi u o'z orzusiga erishdi. Dengizga terilgan shishalarni suv deb o'yladi. Muhimi u hotirjam bu olamni tark etdi. Bu jihatdan asarda ichki konflikt elementlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Orol bobo obrazi ramziy ma'noga ega bo'lib, u insoniy vijdon, tabiatga mehr va ma'naviy poklik timsoli sifatida talqin qilinadi. Qahramonning hayotiy qarashlari va ruhiy holati orqali yozuvchi zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy muammolarni badiiy tahlil qiladi.

Xulosa qilib aytganda Erkin A'zamning “Orol bobo” kinoqissasi nafaqat o'sha davrga, balki hozirgi kunga ham aloqador ekanligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Asardagi ruhiy kechinmalar inson

xarakteri orqali ifodalangan. Jamiyat va inson o'rtasida milliy qadriyatlar konflikti kelib chiqadi. Bu asar orqali muallif hozirgi kunda jamiyatimizda yuzaga kelayotgan muammolarni yaqqol ochib bergan. Insonlarning tabiatga nisbatan befarqligi qanday oqibatlarga olib kelishini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Erkin A'zam "Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi" Toshkent-2018

Dilmurod Quronov Adabiyotshunoslik nazariyasi Toshkent-2019

Shavkat Xasanov "Kinoqissalar poetikasiga bir nazar" SamDU ilmiy axborotnomasi. 2020-yil, 6-son, 11-16-betlar.

Hotam Umurov Adabiyotshunoslik nazariyasi Toshkent-2004

Erkin A'zam ijod: tahlil va talqin. Sahhof-2025